

эга бўлган педагогик ҳодисадир. Очиқ характердаги билимлар ўзига хосликка эга бўлиб, ўз худудида билувчи шахсга нисбатан очиқлик касб этади. Талаба қўз ўнгидан унинг билиш фаолияти жадаллигига асосланган ҳолда билимлар дунёси намоён бўлади. Бу билимлар ва талабанинг билиш фаолияти унинг асосий қадрияти ҳисобланади. Бундай шароитда ўқитувчи талабаларга билимларни тайёр ҳолда тақдим этмайди, балки уларга турлича ақлий операцияларни бажартириш орқали янги билимларни тақдим этади.

Таълим мазмунининг шахсий моҳият касб этиши учун ўқитувчи ва талабалар онгининг шахсий таркибига эътибор қаратиш лозим. Ижодкорликка асосланган ўз фаолиятини мустақил ташкил этишга йўналтирилган ўқув жараёнининг **негизи ва механизми** сифатида ўқиши, ўрганиш, тарбиялаш ҳамда ўз-ўзини тарбиялаш намоён бўлади. Уларда талабаларнинг ўз фаолиятини мустақил ташкил этишга қаратилган ўқув материаллари ва ахлоқий қадриятлар ўз ифодасини топган. Унинг ёрдамида талабаларни педагогик қўллаб-қувватлашга асосланган таълим технологиялари вужудга келади.

Талабанинг янги, яъни ҳамкорлик ҳолатига ўтишида вазиятнинг ўзи билан боғлиқ тарзда унинг онги ва кечинмаларининг икки кўриниши вужудга келади:

1) ижтимоий жиҳатдан мослашиш ёки вазиятни ташкил этиш жараёнида фаол ижодий фаолият кўрсатиш;

2) ўз фаолиятини мустақил этишга асосланган ижодкорлик, таълим олиш, ўрганиш, тарбиялаш, ўз-ўзини тарбиялаш педагогик фаолиятнинг мақсади сифатида намоён бўлади.

Бугунги кунда ўқув дастурида кўрсатилган билимларни талабага кўчириш, унинг билимдонлигини шакллантириш кўникмаси ўрнини ижодий масалаларни ечиш, кўптармоқли онгни шакллантириш, ўз фаолиятини амалга ошириш лаёқатини таркиб топтириш кўникмаси эгаллаши лозим. Шунга кўра ўқитувчи кўп жиҳатдан фан ўқитувчиси ва методист сифатида намоён бўлмаслиги, балки янгича ҳамкорликка асосланган таълим тизимининг бошқарувчиси сифатида фаолият кўрсатиши керак. Чунки, бугунги кун талабига кўра ўқитувчи талабалар онгининг ривожланиш йўлларини таҳлил қилувчи субъектдир.

#### **Foydalanimanadabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1992. – 46 b.
2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

## **TURLI NUTQ BUZILISHLARINI KORREKSIYALASHDA MASSAJ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH**

**Gulchehra Temurova-JDPI o`qituvchisi  
Gulandom Ne'matova-JDPI talabasi**

O`qitishning zamonaviy metodlarini qo’llash o`qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishiga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan

kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Logopedik texnologiyalar darslarida bollar nutq kamchiligini bartaraf etishda massaj texnologiyasidan foydalanishning samarasini katta. Massaj [arab. – qo'l tegizmoq] – fizioterapevtik davolash usuli. Tana yoki biror a'zoga maxsus usulda ta'sir etish. Qo'l bilan bajariladi, ba'zan asboblar ishlataladi (vibromassaj). Massaj muolajasidan so'ng umumiy ahvol yaxshilanadi, charchoq yo'qoladi. Umumiy (butun tana) va mahalliy (tananing bir qismi, masalan, qo'l yoki oyoq panjasasi) massaj bor.

Logopediya massaji - bu nutqning talaffuz tomonini va nutq buzilishlaridan aziyat chekadigan odamlarning hissiy holatini normallashtirishga yordam beradigan logopediya usullaridan biridir.

Logopediya massaji nutq buzilishidan aziyat chekadigan bolalar, o'smirlar va kattalarni reabilitatsiya qilish uchun keng qamrovli tibbiy-pedagogik tizimning bir qismidir.

Logopediya massaji nutq buzilishini tuzatishga qaratilgan keng qamrovli psixologik va pedagogik ishlarning bir qismidir. Buni tuzatuvchi harakatlarning barcha bosqichlarida bajarish mumkin, ammo uni ishning dastlabki bosqichlarida qo'llash ayniqsa muhimdir. Ko'pincha massaj - bu logopediya effektlarining samaradorligi uchun zarur shart.

Artikulyar buzilishlarni yengishda, logopediya massaji passiv, passiv va faol artikulyatsion gimnastika bilan birga amalga oshiriladi. Nafas olish, ovozni shakllantirish, hissiy holatni normallashtirishda massaj an'anaviy logopediya yoki mashqlari bilan birgalikda ishlatalishi mumkin. Logopedik massajni logoped, nervpatolog yoki terapevtlar logopediya usulini biladigan tibbiy mutaxassis amalga oshirishi mumkin. Massajni maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va nutq faoliyatini ta'minlovchi mushaklar anatomiyasi va fiziologiyasini, shuningdek nutq buzilishlarining etiopatogenezini biladigan kishi olib borishi kerak.

Logopedik massajni quyidagi 3-guruha qo'llash mumkin emas.

- Teri kasalliklari – zamburug'li, yiringli uchuq yorilganda, shuningdek gematoma, onkologik kasalliklarda;

- Yuqumli kasalliklar, ya'ni angina, o'tkir tutqanoqli kasalliklar, bolalar yuqumli kasalliklarda;

Stomatologik kasalliklar – stomatit. Har qanday operatsiyalar, tishlar tushishi yoki oldirib tashlashda.

Logopediyada quyidagi massajlar qo'llaniladi:

- An'anaviy;
- Nuqtali(xitoy xalq tabobati);
- Zondli;
- Apparatli;
- O'z o'zini massaj qilish.

An'anaviy klassik massaj to'rt usulda qo'llaniladi. Silash - qo'l badan bo'ylab terini burishtirmasdan asta-sekin silab o'tadi. Agar shu holat sekin bajarilsa, tonusni pasaytiradi. Uqalash – har – xil tomonga to'qimalarning cho'zilishi, lekin qattiq ezmaydi. Tez uqalash jonlantiradi (1-daqiqada to'qqizta harakat), sekinlashsa bo'shashtiradi.

Ezib uqalash – yig'ilib qolgan terini ma'lum bir harakat bilan rag'batlantiriladi. Passiv gimnastika mashqidek ta'sir qiladi. Ortiqcha ezib uqalash juda bo'shashtirib yuborishi mumkin. Agar ezib uqalash umumiy massajning to'rtadan bir qismi vaqtida amalga oshirilsa qisman ta'sir ko'rsatadi. Agar bu uqalash to'g'ri umumiy massaj vaqtining yarmi davomida bajarilsa, faolrag'batlantirkvchi ta'sir ko'rsatadi.

Tebratish – logopedning qo'l harakati tebranishini bolaning uqalanayotgan terisiga yetkazib berish.

Tebranish ikki turda bo'ladi.

- Navbatma-navbat – teri ustidan qo'lni birin-ketin olib bajariladi (chimchilash, taqillatish). U mushaklarni rag'batlantiradi.

- Uzluksiz tebratish qo'llarni teridan olmay bajariladi. Bu holat bolaning mushaklarini bo'shashtiradi.

Logopedik massaj bosh, bo'yin shu bilan birga tepa yelka mushaklaridagi qismlarda bajariladi. Logopedik massaj vaqtida pereferik nutq apparatidagi mushaklarga alohida diqqatni jalg qilinadi, ya'ni til lab, yuz, yumshoq tanglay mushaklarga e'tibor qaratiladi. Logoped logopedik massaj qiladigan qismini, mushaklarni funktsiyasini, joylashishni yaxshi tasavvur qila olishi lozim. So'nggi o'n yilliklarda massajga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada o'sdi. Massaj - inson tanasiga jismoniy va energiya ta'sir qilish usullaridan biri u - tinchlantiradi, og'riqni yengillashtiradi, kasallikni yengishga yordam beradi va hatto bolalarning aqliy, nutqiy va jismoniy rivojlanishiga hissa qo'shami.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muzaffarova, X. (2020). Pedagogik texnologiyalar va ularni maxsus ta'lim mussasalariga tadbiq etish .*Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI*, 1(92). izvlecheno ot [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6711](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6711)

2. Temurova, G. (2020). MAKTABGACHA YoSHDAGI ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING UMUMIY MOTORIKASINI RIVOJLANTIRISH. *Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI*, 1(91). izvlecheno ot [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6843](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6843)

3. Temurova, G. (2020). IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI SOG'LOMLASHTIRISHDA JISMONIY MASHQLARNING AHAMIYATI. *Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI*, 1(91). izvlecheno ot [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6844](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6844)

## **TA'LIM – TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISHDA O'QITUVCHINING MAHORATI**

**Xayitgul Muzaffarova-JDPI o`qituvchisi  
R'ano Lapasova-Defektologiya yo`nalishi talabasi**

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi. Prezidentimiz SH.Mirziyoev tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruktsiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam. Albatta, bu boradagi islohotlar samarasini soha talablariga to'liq javob bera oladigan kadrlarsiz tasavvur etish qiyin. SHu sababli tizimdagи pedagog xodimlar mahoratini ilg'or usullar orqali muntazam oshirib borish mexanizmini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lrim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etgan holda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini takomillashtirish masalasi ham